XALQ DEPUTATLARI KOSON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 6 - avgust VI-75-79-4-60-K/22 Koson tuman hokimligi

“Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash xaqidagi 48-sonli qarori, Koson tuman hokimining 16.10.2021 yildagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi” majlisining 6-sonli o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni hamda geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 23.02.2022 yildagi 01-14-194-sonli yig‘ilish bayoni taklifini ko‘rib chikib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 ва 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L D I :

1. Tuman hokimining 2021 yil 16-oktabrdagi Koson tumanidagi **Boyg‘undi** fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi negizida **“Yangi O‘zbekiston”** fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tashkil etish to‘g‘risida“gi 6-sonli bayoni ma’qullansin.

2. **“Yangi O‘zbekiston”** fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi 2022 yil 3-chorakdan budjet hisobidan faoliyat ko‘rsatsin.

3. **“Yangi O‘zbekiston”** fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi mahalla raisligiga munosib nomzod tayinlansin.

4. Tuman moliya bo‘limi (SH.Safarov), yangi tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organini saqlash uchun zarur shtatlarni 2022 yil 3-chorakdan to‘lig‘icha tayinlansin.

5. Yangi tashkil etilgan **“Yangi O‘zbekiston”** fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi raisiga, 10 kun muddat ichida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi Nizomini ishlab

chiqib, Koson tumani Davlat xizmatlari markazidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish topshirilsin.

6. Mahalla nomini hamda ko‘cha nomini ifodalovchi peshlavhalarni (M.Hayitova) Davlat tili to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga rioya etilishiga e’tibor qaratilsin.

7. Tumandagi bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshkarish organining chegaralari va aholi soni 1-2-3 ва 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tuman statistika bo‘limi (X.Abdullayev), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Davlat kadastrlar agentligi (O‘.Xayitov), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi (M.Mavlonov) va boshka tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshkarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

9. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Kutlimuratov) mazkur karor bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organiga muhr va shtamplar, bundan tashqari yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

10. Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi (M.Mavlonov)ga, tumanda yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organiga yangi nom yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

11. Mazkur qarorning Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Abdiyev) hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlanish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari U.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **R.X.Islamova**

Xalq deputatlari Koson tuman
Kengashining
2022 yil 6 avgustdagi
VI-75-79-4-60-K/22-son qaroriga
1-ilova

Bo‘linayotgan Boyg‘undi MFYning taklif etiladigan yangi nomi va joylashishi to‘g‘risida

№	Bo‘lingan MFY nomi	Yangi tashkil etilgan MFY nomi
1.	Boyg‘undi MFY	Yangi O‘zbekiston MFY

Xalq deputatlari Koson tuman
Kengashining
2022 yil 6 avgustdagi
VI-75-79-4-60-K/22-son qaroriga
2-ilova

Bo‘linayotgan Boyg‘undi MFYning taklif etiladigan yangi nomi va joylashishi to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan MFY jami xo‘jaliklar soni	Bo‘lingan MFYga kolgan aholi soni	Yangi tashkil etilgan FO‘O‘BO aholi soni
1.	1179	523	656 ta

Xalq deputatlari Koson tuman
Kengashining
2022 yil 6 avgustdagi
VI-75-79-4-60-K/22-son qaroriga
3-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

Yangi tahrirda bayon etilsin

Bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomga

1-ilova

O‘rta Obr Oo‘n5t4a Ob9m ve9n5u4 Nd1h Mfy MN3a/2M Oe3z P9u d1n f9M Y3y 9M f5 v3 8 0u 9m 5 9O 5 3r 9 2 3 m e t r

Xalq deputatlari Koson tuman
Kengashining
2022 yil 6 avgustdagi
VI-75-79-4-60-K/22-son qaroriga
4-ilova

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan FO‘O‘BOning aholi soni to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan Boyg‘undi MFY jami aholi soni	Bo‘lingan Boyg‘undi MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan Yangi O‘zbekiston FO‘O‘BO aholi soni
1.	5097	2500	2548